

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTNING
QARORI

**BOLALAR UCHUN MO‘LJALLANGAN MILLIY KONTENTLAR YARATISH VA
ULARNI OMMALASHTIRISHNI QO‘LLAB-QUVVATLASH CHORA-TADBIRLARI
TO‘G‘RISIDA**

Bolalarni ma’naviy-axloqiy jihatdan munosib tarbiyalash, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va o‘zlikni anglash hissini shakllantirish mamlakatimizning kelgusi taraqqiyotini belgilaydigan eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Hozirgi globallashtirish jarayonida yosh avlod ongida turli axborot xurujlariga qarshi g‘oyaviy immunitetni kuchaytirish tobora dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

Farzandlarimizni milliy o‘zligimiz mezonlariga zid bo‘lgan kontentlarning salbiy ta’siridan va salomatligiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan axborotlardan himoya qilish, shuningdek, ularni ta’limga keng jalb etish, kasbga yo‘naltirish hamda yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga mo‘ljallangan milliy kontentlar yaratishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida qaror qilaman:

1. Quyidagilar respublikada bolalar uchun mo‘ljallangan milliy kontentlar, jumladan, audiovizual va san’at asarlari, noshirlik va raqamli mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ularni ommalashtirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilansin:

(a) bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmasi, tabiatni asrab-avaylash, milliy qadriyatlarga hurmat va ona Vatanga sadoqat hissini tarbiyalashga xizmat qiluvchi kontentlar yaratish hamda ularni ta’lim va tarbiya dasturlari bilan integratsiya qilish;

(b) chet el kontentlarining bolalarning ongi va qalbiga ta’sirini muntazam tahlil qilib borish va tegishli takliflar ishlab chiqish, ushbu yo‘nalishda zararli trendlar, xatarli chellenjlarni aniqlash va ularga qarshi kontentlar ishlab chiqish, bolalar uchun xavfsiz axborot muhitini yaratish;

(v) ota-onalar va bolalarni internet tarmog‘idagi axborotlarni to‘g‘ri baholashga hamda xavfli kontentlarni aniqlashga yo‘naltiruvchi mexanizmlarni ishlab chiqish;

(g) bolalar uchun mo‘ljallangan kontentlar yaratish va ularni realizatsiya qilishni izchil qo‘llab-quvvatlash, ushbu yo‘nalishda yuqori bilim va malakaga ega kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish, sohada ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish, shuningdek, xalqaro hamkorlikni kengaytirish.

2. Bolalar uchun mo‘ljallangan milliy kontentlar yaratishni muvofiqlashtiruvchi kengash (keyingi o‘rinlarda — Muvofiqlashtiruvchi kengash) tuzilsin, uning tarkibi hamda asosiy vazifalari **1 va 2-ilovalarga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Bolalar kontentini rivojlantirish markazi (keyingi o‘rinlarda — Markaz) tashkil etilganligi hamda **3-ilovaga** muvofiq uning asosiy vazifalari belgilab olingani ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Markazning:

(a) Muvofiqlashtiruvchi kengashning ishchi organi sifatida Markazni belgilash;

(b) Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti, Markaz vakillari va malakali mutaxassislardan iborat tarkibda ekspertlar guruhini tuzish;

(v) ekspertlar guruhi tomonidan Markaz buyurtmasiga asosan ishlab chiqariladigan kontentlarning g‘oyasi, mazmun-mohiyati, badiiy saviyasini ko‘rib chiqish, loyiha va ssenariylarni saralash hamda ularni ishlab chiqarishga tavsiya etib borishni yo‘lga qo‘yish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

5. Belgilansinki, 2025-yil 1-iyuldan 2030-yil 1-yanvarga qadar:

(a) bolalar uchun mo‘ljallangan kontentlar yaratishdan olgan daromadi jami yillik daromadining kamida 80 foizini tashkil etgan yuridik shaxslar, shuningdek, Markaz:

(i) foyda solig‘i to‘lashdan ozod qilinadi;

(ii) ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdorida to‘laydi;

(b) yuridik shaxslarga bolalar uchun mo‘ljallangan kontentlar yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarini foyda solig‘ini hisoblashda chegirib tashlash huquqi beriladi;

(v) yuridik shaxslar va Markaz tomonidan bolalar uchun mo'ljallangan kontentlar yaratish uchun budjetga to'langan qo'shilgan qiymat solig'i soliq hisobotlari taqdim etilgandan keyin Davlat budjetidan ularga to'liq miqdorda qaytariladi.

6. Iqtisodiyot va moliya vazirligi:

(a) Soliq qo'mitasi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Markaz bilan birgalikda bir oy muddatda ushbu qarorning 5-bandida nazarda tutilgan soliq imtiyozlarini taqdim etish bo'yicha qonun loyihasini;

(b) Madaniyat vazirligi, Soliq qo'mitasi bilan birgalikda uch oy muddatda ushbu qarorning 5-bandida nazarda tutilgan soliq imtiyozlarini 2026-yil 1-yanvardan 2030-yil 1-yanvarga qadar milliy film va seriallar ishlab chiqaruvchi subyektlarga ham tatbiq etish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

7. Bolalar uchun mo'ljallangan kontentlar yaratishni qo'llab-quvvatlash maqsadida belgilansinki:

(a) bolalar uchun mo'ljallangan kontentlar yaratishni qo'shimcha moliyalashtirish uchun har yili:

Oldingi tahrirga qarang.

(i) ushbu qarorning 4-ilovasida belgilangan vazirlik va idoralar, shuningdek, boshqa davlat boshqaruvi organlari, shu jumladan, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan ularga Davlat budjeti va budjetdan tashqari jamg'armalar, mahalliy budjet hisobidan ajratilgan mablag'lar to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida Markazga yo'naltiriladi;

(7-band (a) kichik bandining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-iyuldagi PQ-232-sonli qarori tahririda)

Oldingi tahrirga qarang.

(ii) Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ustav fondi (ustav kapitali)da davlat ulushi 50 foiz hamda undan ortiq bo'lgan korxonalarining biznes-rejalari mablag'lar nazarda tutiladi hamda ushbu mablag'larning to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida Markazga ajratilishi tashkil etiladi;

(7-band (a) kichik bandining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-iyuldagi PQ-232-sonli qarori tahririda)

(b) Markaz unga ajratilgan mablag'lar, shu jumladan, Davlat budjeti mablag'lari hisobidan ijodiy tanlov asosida ekspertlar guruhi xulosalariga muvofiq to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida bolalar uchun mo'ljallangan kontentlar yaratish bo'yicha buyurtmalar beradi;

(v) Markaz buyurtmasi asosida bolalar uchun mo'ljallangan kontentlar yaratgan subyektlar 2030-yil 1-yanvarga qadar shartnomada nazarda tutgan holda ushbu kontentlarni bevosita o'zlari tomonidan realizatsiya, shu jumladan, prokat qilishdan tushgan mablag'ning 50 foizini o'z tasarrufiga olib qoladi va uni Markaz bilan kelishgan holda o'z faoliyatini rivojlantirishga sarflaydi.

8. Belgilansinki:

(a) Markaz bolalar uchun mo'ljallangan tele- va radiomahsulotlarni ishlab chiqarish va efirga uzatish bo'yicha har yili eng yaxshi 30 ta loyiha uchun tanlov e'lon qiladi. Bunda har bir loyiha qiyamati bazaviy hisoblash miqdorining 300 baravarigacha miqdorda bo'ladi, shuningdek, ushbu maqsadlar uchun Davlat budjeti mablag'lari hisobidan Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligiga ajratiladigan mablag'lar Markazga yo'naltiriladi;

(b) Markazning asosiy vazifalarini amalga oshirish maqsadida Markazga 2025-yilda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchi sifatida ajratilgan mablag'lar hisobidan 20 milliard so'm mablag' ajratiladi, 2026-yildan boshlab esa Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining asoslangan hisob-kitoblariga ko'ra zarur mablag'lar Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutiladi.

9. Bolalar uchun mo'ljallangan kontentlarni muntazam efirga uzatib borish uchun O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bir oy muddatda "Bolajon" telekanalini barcha moddiy-texnik bazasi, amaldagi moliyalashtirish tartibi, huquqlari va majburiyatlari bilan birgalikda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimiga o'tkazsin.

Belgilansinki, “Bolajon” telekanali “O‘zbektelefilm” davlat muassasasiga tegishli pavilyon va studiyalardan ijara to‘lovisiz foydalanadi.

10. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi 2025-yil 1-sentabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi “Barkamol avlod” bolalar maktabida, 2026-yildan boshlab esa viloyatlar va Toshkent shahar “Barkamol avlod” bolalar maktablarida bosqichma-bosqich iqtidorli yoshlarni seleksiya qilish va ularning iqtidorini yanada rivojlantirish bo‘yicha kreativ industriya yo‘nalishida to‘garaklar (keyingi o‘rinlarda — to‘garaklar) faoliyatini yo‘lga qo‘ysin. Bunda:

(a) to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun “Barkamol avlod” bolalar maktablarining xonalarini ta’mirlash xarajatlari mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan;

(b) zamonaviy kompyuter va texnikalar bilan jihozlash xarajatlari Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga ajratilgan Davlat budjeti mablag‘lari hamda vazirlikning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan;

(v) to‘garaklarga mashg‘ulot olib borish uchun jalb etiladigan mutaxassislarning ish haqi Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

Belgilansinki, animatsiya va bolalar kontenti yo‘nalishidagi to‘garaklarda mashg‘ulotlar Markaz tavsiya etgan mutaxassislar tomonidan olib boriladi.

11. Raqamli texnologiyalar, kontentlar yaratish bilan bog‘liq zamonaviy kasblarni egallashga ishtiyoqi baland bo‘lgan o‘quvchi-yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, saralab olish hamda ularning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida “Raqamli avlod” loyihasi amalga oshiriladi.

“Raqamli avlod” loyihasi doirasida har yili IT oromgoh, haftalik, musobaqa, “Raqamli avlod qizlari” tanlovi, sayyor tadbir, xakaton va boshqa tadbirlar o‘tkaziladi, shuningdek, har chorakda “Renessans” bolalar oromgohida o‘quv-seminar treninglari tashkil etiladi.

Mazkur bandeda nazarda tutilgan tadbirlarning respublika bosqichi g‘oliblari xorijiy davlatlarga ta’lim sayohatiga yuboriladi.

12. Zamonaviy texnologiyalar asosida bolalar uchun mo‘ljallangan kontentlar yaratish yo‘nalishida yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadida har yili:

(a) “El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan jahondagi yetakchi oliy ta’lim tashkilotlarida bakalavriat dasturlari bo‘yicha kadrlar tayyorlash uchun 5 ta kvota;

(b) Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari doirasida jahondagi yetakchi kompaniyalarda amaliyot (stajirovka) o‘tash uchun 10 ta kvota ajratiladi.

13. 2028-yil 1-iyunga qadar O‘zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan, belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxat bo‘yicha Markaz tomonidan o‘z faoliyatida foydalanish maqsadida olib kiriladigan qurilma, dasturiy va texnik vositalar, butlovchi qismlar bojxona bojidan ozod etiladi.

14. Toshkent shahrining Mirzo Ulug‘bek tumani “Navnihol” mahalla fuqarolar yig‘ini Tepamasjid ko‘chasidagi 4-uyda joylashgan IT park hududidagi binoning 4000 kv. metrdan kam bo‘lmagan qismi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Markazga tekin foydalanish huquqi asosida ajratilsin.

15. Bolalar uchun mo‘ljallangan milliy kontentlar yaratish va ularni ommalashtirishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi [5-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

16. Iqtisodiyot va moliya vazirligi 2026-yildan boshlab har yili Davlat budjeti parametrlarida ushbu qaror ijrosi uchun zarur mablag‘larning nazarda tutilishini ta’minlasin.

17. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib maktabgacha va maktab ta’limi vaziri X.U. Umarova belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari O.Q. Abduraxmanov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2025-yil 15-may,
PQ-183-son

Oldingi tahririga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PQ-183-son qaroriga
1-ILOVA

Bolalar uchun mo‘ljallangan milliy kontentlar yaratishni muvofiqlashtiruvchi kengash

TARKIBI

1. S.Sh. — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari, Mirziyoyeva *Muvofiqlashtiruvchi kengash raisi*
2. X.U. Umarova — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining o‘rinbosari, *Muvofiqlashtiruvchi kengash raisi o‘rinbosari*
3. E.G. Karimova — maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri
4. O.A. — madaniyat vaziri
Nazarbekov
5. K.A. Sharipov — oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri
6. Sh.X. — raqamli texnologiyalar vaziri
Shermatov
7. S. Saidov — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi
8. M. Matchonov — O‘zbekiston kinoarboblari ijodiy uyushmasi raisi
9. A.A. Ismoilov — A. Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti rektori
10. X.I. Ibragimov — Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti direktori
11. A.A. Jalolov — “Digital Generation Uzbekistan” nodavlat notijorat tashkiloti direktori
12. J.O. Ahmedov — Bolalar kontentini rivojlantirish markazi rahbari, *Muvofiqlashtiruvchi kengash kotibi*

Izohlar:

Muvofiqlashtiruvchi kengash a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

Muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyatiga vazirlik va idoralar rahbarlari, tegishli soha vakillari va mutaxassislar jalb etilishi mumkin.

(1-ilovaning matni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi PQ-277-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 17.09.2025-y., 07/25/277/0833-son)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PQ-183-son qaroriga
2-ILOVA

Bolalar uchun mo‘ljallangan milliy kontentlar yaratishni muvofiqlashtiruvchi kengashning

ASOSIY VAZIFALARI

1. Bolalarga oid davlat axborot siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish, shuningdek, respublikada bolalar uchun mo‘ljallangan milliy kontentlarni yaratish hamda ularni ommalashtirishning ustuvor yo‘nalishlari izchil amalga oshirilishini tashkil etish.

2. Bolalar uchun mo‘ljallangan milliy kontentlar yaratish, realizatsiya qilish va ommalashtirishda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, soha vakillari, tadbirkorlar va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga ko‘maklashish.

3. Bolalar ongida ma‘naviy qadriyatlar va milliy davlatchilik g‘oyalariga hurmat hissini shakllantirishga mo‘ljallangan kontentlar yaratish konsepsiyasini ishlab chiqish.

4. O‘zbekiston milliy taraqqiyotini bolalar o‘rtasida sodda va ta‘sirchan usullarda targ‘ib qilishga mo‘ljallangan maxsus multimedia va axborot loyihalarini ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish.

5. Bolalarga yo‘naltirilgan tashqi va ichki axborot tahdidlarini muntazam tahlil qilish, ularning oldini olish choralarini ko‘rish, bolalar uchun xavfsiz axborot muhitini yaratish ishlarini tashkil etish.

6. Bolalarning ongi va dunyoqarashini har xil zararli tashqi ta'sirlardan himoya qilish bo'yicha milliy media strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish.

7. Bolalar uchun mo'ljallangan kontentlar yaratishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun davlat va xususiy sektor mablag'lari, xalqaro grantlar jalb etilishini tashkil qilish.

8. Bolalar uchun mo'ljallangan kontentlarni ommalashtirish, realizatsiya qilish va xalqaro bozorlarga olib chiqilishiga ko'maklashish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish.

9. Bolalar uchun mo'ljallangan kontentlar yaratish, bolalarni zararli kontentlardan himoya qilish bo'yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

10. Bolalar uchun mo'ljallangan milliy axborot muhitini hamda kontentlar yaratishni rivojlantirish bo'yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PQ-183-son qaroriga
3-ILOVA

Bolalar kontentini rivojlantirish markazining

ASOSIY VAZIFALARI

1. Bolalar uchun mo'ljallangan tarbiyaviy, ma'rifiy ahamiyatga ega milliy kontentlar va targ'ibot vositalari yaratishni qo'llab-quvvatlash.

2. Xorijiy kontentlarning bolalar ongi va dunyoqarashiga ta'sirini tahlil qilish orqali ularning eng sara va foydali namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilish hamda ommaviy namoyishga tavsiya etish.

3. Respublika hududida bolalar uchun mo'ljallangan zararli axborotlar tarqalishining oldini olishga hamda bolalar va ota-onalarning media savodxonligini oshirishga qaratilgan materiallar tayyorlashni yo'lga qo'yish.

4. Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar orasida bolalar uchun mo'ljallangan milliy kontentlarni ommalashtirish bo'yicha chet ellardagi madaniy markazlar bilan hamkorlik qilish.

5. Bolalar uchun foydali hisoblangan kontentlarni tavsiya qiluvchi ijtimoiy tarmoq sahifalari va sun'iy intellekt tizimlarini joriy etish.

6. Bolalar uchun mo'ljallangan milliy kontentlarni yaratishga xorijiy mutaxassislarini jalb qilish bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan qo'shma loyihalar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish.

7. Bolalarga milliy madaniyat, san'at, adabiyot, tarix va ma'naviy qadriyatlar haqida tushunchalar berishga, ularda ekologik madaniyatni shakllantirish hamda sog'lom turmush tarzi ko'nikmasini rivojlantirishga mo'ljallangan milliy kontentlar yaratishga oid loyihalarni joriy qilish.

8. Bolalarning o'zbek tilida ravon so'zlash va imloviy xatolarsiz yozish ko'nikmasini rivojlantirishga mo'ljallangan interaktiv dasturlar yaratish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PQ-183-son qaroriga
4-ILOVA

Bolalar uchun mo'ljallangan milliy kontentlar yaratishni moliyalashtirish uchun mablag' ajratishga mas'ul bo'lgan asosiy vazirlik va idoralar

RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi
2. Bosh prokuratura
3. Ichki ishlar vazirligi
4. Mudofaa vazirligi
5. Favqulodda vaziyatlar vazirligi

6. Raqamli texnologiyalar vazirligi
7. Energetika vazirligi
8. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi
9. Transport vazirligi
10. Madaniyat vazirligi
11. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
12. Sog'liqni saqlash vazirligi
13. Sport vazirligi
14. Qishloq xo'jaligi vazirligi
15. Suv xo'jaligi vazirligi
16. Bojxona qo'mitasi
17. Soliq qo'mitasi
18. Oila va xotin-qizlar qo'mitasi
19. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi
20. Yoshlar ishlari agentligi
21. O'zbekiston mahallalari uyushmasi

Izoh: har bir vazirlik va idora tomonidan bolalar uchun mo'ljallangan milliy kontentlar ishlab chiqarishni moliyalashtirish maqsadida bir moliya yilida ularga Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida, shuningdek, budjetdan tashqari mablag'lar va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan mablag' ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PQ-183-son qaroriga
5-ILOVA

Bolalar uchun mo'ljallangan milliy kontentlar yaratish va ularni ommalashtirishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha

CHORA-TADBIRLAR REJASI

Oldingi tahrirga qarang.

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish va natijalarga erishish mexanizmlari	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
1.	Bolalar kontentini rivojlantirish	1. Markazni kerakli jihozlar,	2025-yil iyul	Maktabgacha va maktab ta'limi	Maktabgacha va maktab ta'limi

	va qo'llab-quvvatlash.	<p>2. Buyurtmalar rejasini tasdiqlash uchun Bolalar uchun mo'ljallangan milliy kontentlar yaratishni muvofiqlashtiruvchi kengashga tasdiqlash uchun kiritish.</p> <p>3. Buyurtmalar rejasiga muvofiq kontentlarni yuqori badiiy saviyada ishlab chiqishni tashkil qilish, taqdimotlarini o'tkazish va keng ommalashtirish choralarini ko'rish.</p>	Belgilangan muddatlarda		shahri hokimliklari, Markaz
4.	Bolalar uchun mo'ljallangan kontentlar yaratishni qo'shimcha moliyalashtirish.	<p>1. Vazirlik va idoralar, shuningdek, boshqa davlat boshqaruv organlari, shu jumladan, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, ustav fondi (ustav kapitali)da davlat ulushi 50 foiz hamda undan ortiq bo'lgan korxonalar bilan Markaz o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish hamda bo'nak to'lovlarini 30 foizdan yuqori bo'lgan miqdorda to'lash.</p> <p>2. Ushbu vazirlik, idora va korxonalar tomonidan shartnomalarda ko'rsatilgan mablag'larni Markazga o'tkazish.</p> <p>3. Bolalar uchun mo'ljallangan kontentlar</p>	<p>Kelgusi yillar uchun har yili iyun (2025-2026-yillar uchun 2025-yil iyun)</p> <p>Har yili 1-aprelga qadar (2025-yil uchun 1-sentabrga qadar)</p> <p>Belgilangan muddatlarda</p>	Vazirlik va idoralarning budjet va budjetdan tashqari mablag'lari	Vazirlik, idora, korxonalar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari, Markaz

		yaratishni tashkil etish.			
5.	Markaz buyurtmalariga asosan ishlab chiqilgan kontentlar bo'yicha mualliflik huquqi va turdosh huquqlarga oid munosabatlarni oqilona yo'lga qo'yish hamda kontentlardan samarali foydalanish.	<p>1. Markaz buyurtmalariga, shu jumladan, vazirlik, idora va korxonalar tomonidan ajratilgan mablag'lar hisobidan ishlab chiqiladigan kontentlarda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarga oid munosabatlarni shartnomalarda aniq belgilash.</p> <p>Bunda qoida tariqasida, kontentlardan foydalanishga bo'lgan mutlaq huquqlarni Markazga tegishli bo'lishini inobatga olish.</p> <p>2. Markaz buyurtmasi asosida kontent yaratgan subyektlar 2030-yil 1-yanvarga qadar shartnomada nazarda tutgan holda ushbu kontentlarni bevosita o'zlari tomonidan realizatsiya, shu jumladan, prokat qilishdan tushgan mablag'larning 50 foizini o'z tasarrufiga olib qolish, ular ushbu mablag'larni Markaz bilan kelishgan holda o'z faoliyatlarini rivojlantirishga</p>	Shartnomalar tuzish davomida		Markaz, tegishli vazirlik, idora va korxonalar hamda boshqa subyektlar
			Belgilangan muddatlarda		

		sarflashini yo'lga qo'yish.			
6.	Respublikada bolalar uchun ixtisoslashgan teleradiokanallar faoliyatini takomillashtirish hamda qo'llab-quvvatlash.	<p>1. "Bolajon" telekanalini barcha moddiy-texnik bazasi, amaldagi moliyalashtirish tartibi, huquqlari va majburiyatlari bilan birga Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimiga o'tkazish.</p> <p>2. "Bolajon" va "Aqlvoy" telekanallarining teleradio-eshittirishlarni uzatish va tarqatish, shuningdek, "O'zbektelekom" AJ tomonidan ko'rsatiladigan telekommunikatsiya xizmatlari bilan bog'liq xarajatlarni Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplab berish.</p> <p>3. "Bolajon" telekanali faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun A. Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti hududida televizion studiyalar va pavilyonlarni tashkil etish masalasini ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritish.</p>	2025-yil iyun		O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
			2025-yil avgustdan boshlab doimiy	Davlat budjeti mablag'lari	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi
			2025-yil sentabr	2026-2027-yillar O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi
7.	Bolalar uchun mo'ljallangan eng yaxshi tele- va	1. Markaz tomonidan bolalar uchun mo'ljallangan	Har yili	Davlat budjeti mablag'lari	Markaz

	<p>radiomahsulotlarni ishlab chiqarish va efirga uzatishni rag'batlantirib borish.</p>	<p>tele- va radiomahsulotlarni ishlab chiqarish va efirga uzatish bo'yicha har yili eng yaxshi 30 ta loyiha uchun tanlovini e'lon qilish.</p> <p>Bunda har bir tanlov qiymatini bazaviy hisoblash miqdorining 300 baravarigacha miqdorda belgilash.</p> <p>2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27 iyundagi "Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-294-son qarori bilan ushbu maqsad uchun Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligiga Davlat budjeti hisobidan ajratilgan mablag'larni Markazga yo'naltirish.</p>			<p>Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaz</p>
8.	<p>"Barkamol avlod" bolalar maktablarida bosqichma-bosqich iqtidorli yoshlarni seleksiya qilish va ularning iqtidorini yanada rivojlantirish bo'yicha kreativ industriya yo'nalishida to'garaklar (keyingi o'rinlarda —</p>	<p>1. Qoraqalpog'iston Respublikasi "Barkamol avlod" bolalar maktabida xonalarni ta'mirlash, jihozlash va to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish.</p> <p>2. Viloyatlar va Toshkent shahar "Barkamol avlod" bolalar maktablarida bosqichma-bosqich to'garaklar</p>	<p>2025-yil sentabr</p> <p>2026-yildan boshlab bosqichma-bosqich</p>	<p>Mahalliy budget mablag'lari, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining budget hamda budgetdan tashqari mablag'lari</p>	<p>Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi</p>

	<p>to'garaklar) faoliyatini yo'lga qo'yish.</p>	<p>faoliyatini yo'lga qo'yish.</p> <p>3. To'garaklarga jalb etilgan mutaxassislarga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 30 baravari miqdorida lavozim maoshi to'lash.</p> <p>Bunda: Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan faoliyati yo'lga qo'yiladigan to'garaklarga jalb etiladigan mutaxassislarga zarur mablag'larni ajratish uchun moliya yili bo'yicha tegishli hisob-kitoblar Raqamli texnologiyalar vazirligiga kiritiladi;</p> <p>Raqamli texnologiyalar vazirligi ushbu taqdim etilgan hisob-kitoblarda ko'rsatilgan jami mablag'larni o'n kun muddatda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga o'tkazib beradi.</p>	<p>Har yili 1-aprelga qadar (2025-yil uchun 1-avgustga qadar)</p>	<p>Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari</p>	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi</p>
<p>9.</p>	<p>“Raqamli avlod” loyihasi doirasida har yili “Raqamli avlod IT oromgohi”, “Raqamli avlod qizlari”, “Raqamli avlod IT haftaligi” va boshqa sayyor tadbir va tanlovlar, shuningdek, IT musobaqa va xakatonlar</p>	<p>1. “Raqamli avlod” loyihasi doirasida tadbir va tanlovlarda ishtirok etishni tashkil qilish, o'quvchi-yoshlar o'zlarining kreativ g'oyalarini, loyihalarini amalga oshirishlari uchun zamonaviy bino bilan ta'minlash.</p>	<p>2025-yil 31-dekabr</p>	<p>Mahalliy budjet mablag'lari</p>	<p>Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari</p>

	o'tkazishni yo'lga qo'yish.	<p>2. "Raqamli avlod" loyihasi doirasida tadbir va tanlovlarning respublika bosqichini o'tkazish.</p> <p>3. "Raqamli avlod" loyihasi doirasida o'tkazilgan tadbir va tanlovlar g'oliblarini rivojlangan davlatlarga ta'lim sayohatiga yuborish. Bunda "Digital Generation Uzbekistan" nodavlat notijorat tashkilotiga "Raqamli avlod" loyihasini amalga oshirishga hamda "Renessans" oromgohida o'quv-seminar treninglarni tashkil etishga ruxsat berish.</p>	<p>Har yili reja-jadval asosida</p> <p>Har yili reja-jadval asosida</p>	<p>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining budjet hamda tashqari mablag'lari, Markaz mablag'lari</p> <p>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining budjet hamda tashqari mablag'lari</p>	<p>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Markaz</p> <p>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi</p>
10.	Zamonaviy texnologiyalar asosida bolalar uchun mo'ljallangan kontentlar yaratish yo'nalishida kadrlar tayyorlash.	<p>1. Ushbu yo'nalishda kadrlar tayyorlash bo'yicha har yili: "El-yurt umidi" jamg'armasi tomonidan jahondagi yetakchi oliy ta'lim tashkilotlarida bakalavriat dasturlari bo'yicha kadrlar tayyorlash uchun 5 ta kvota; Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari</p>	Har yili yil davomida	"El-yurt umidi" jamg'armasi, Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari	"El-yurt umidi" jamg'armasi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Markaz

		<p>doirasida jahondagi yetakchi kompaniyalarda amaliyot (stajirovka) o'tash uchun 10 ta kvota ajratish.</p> <p>2. Markaz tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda tanlov asosida aniqlangan shaxslarga ushbu ta'lim grantlari va imkoniyatlardan foydalanishni yo'lga qo'yish.</p>			
11.	<p>Bolalar uchun mo'ljallangan kontentlar yaratish bo'yicha soliq imtiyozlari va boshqa preferensiyalarni taqdim etish.</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi "Bolalar uchun mo'ljallangan milliy kontentlar yaratish va ularni ommalashtirishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-183-son qarorida nazarda tutilgan:</p> <p>soliq imtiyozlarini taqdim etish bo'yicha qonun loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish;</p> <p>soliq imtiyozlari va boshqa preferensiyalarni qo'llash tartibiga oid Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	<p>2025-yil iyun</p> <p>2025-yil iyul</p>		<p>Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo'mitasi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Soliq qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Markaz</p>

(5-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-iyuldagi PQ-232-sonli qarori tahririda)

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.05.2025-y., 07/25/183/0446-son; 17.09.2025-y., 07/25/277/0833-son)